


# TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4

29 709



Mas'uliyati  
cheklangan jamiyat

3 880



Oilaviy korxonona

276



Unitar korxonona

6 491



Xususiy korxonona

49



Aksiyadorlik jamiyati


277



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)








Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **27,3** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,0 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**426**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**8 054**

Ishlab chiqarish sanoati

**71**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**200**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8 751 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 113,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 120,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 124,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 120,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,3 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,0** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni




**18,0** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**21,2** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**52,6** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **46,8** foizga oshdi




## Xususiy korxonalar





## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 592 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 111,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 54,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 132,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 126,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 38,9 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 687 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 128,2 % ga (jami savdodagi ulushi 69,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 124,7 % ga (jami savdodagi ulushi 23,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 131,0 % ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

713



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

23



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



304

yashash bo'yicha xizmatlar



3 115

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 419 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 112,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 129,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 8,9 %) o'sishidir.



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 4 321 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 112 taga yoki 134,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 880 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 972 taga yoki 133,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 78 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga yoki 25,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 33 232 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 000 taga yoki 122,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 29 709 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 772 taga yoki 124,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 628 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 3,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 1 447 tani tashkil etib, ulardan 1 319 tasi yoki 91,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 147 taga yoki 111,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oylarida viloyatimizda 12 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi  
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonaga	xorijiy korxonaga
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1450</b>	<b>733</b>	<b>717</b>
Oqqo'rg'on t.	14	6	8
Ohangaron t.	85	35	50
Bekobod t.	11	8	3
Bo'stonliq t.	64	34	30
Bo'ka t.	14	9	5
Quyichirchiq t.	45	24	21
Zangiota t.	182	89	93
Yuqorichirchiq t.	119	58	61
Qibray t.	156	84	72
Parkent t.	25	14	11
Piskent t.	20	10	10
O'rtachirchiq t.	86	42	44
Chinoz t.	24	12	12
Yangiyo'l t.	81	30	51
Toshkent t.	83	53	30
Nurafshon sh.	62	29	33
Olmaliq sh.	47	13	34
Angren sh.	108	71	37
Bekobod sh.	24	17	7
Ohangaron sh.	51	24	27
Chirchiq sh.	82	50	32
Yangiyo'l sh.	67	21	46

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71 202-86-83**